

Mengdobilova M.Q.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Akademik litseyi

Chirchiq, O'zbekiston

Annotasiya: *Mazkur ilmiy maqola tarix fanining ba'zi metodologik muammolarini, o'rta maxsus tarix ta'lifi, undagi yuz bergan o'zgarishlar, tarixni o'rganishning ahamiyati haqidagi qarashlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, mакtab tarix ta'lifining zamonaviy konsepsiysi, O'zbekiston tarixini o'rganishdagi ilmiy, metodologik masalalar asosiy o'rinnutadi.*

Kalit so'zlari: *tarix fani metodologiyasi, tarix tamoyillari, tarixiy tafakkur, tarix ta'lifining zamonaviy konsepsiysi.*

Kirish

Mustaqillikning birinchi kunlaridan ijtimoiy-gumanitar fanlarda tub o'zgarishlar davri boshlandi. Tarix fanini tadqiq etish va o'qitishda yangi metodologiya kirib keldi. Jahon tarixi fanida e'tirof etilgan xolisiylik, ilmiylik, tarixiylik va muqobililik tamoyillari tarixni tadqiq etish va o'qitishda tadbiq etila boshlandi. Tarix ta'lifi mazmun-mohiyatini zamon ruhida o'quvchilarga yetkazish uchun o'quv-metodik majmua yangilandi. O'rta maktab uchun tarix fanidan yangi darsliklar yaratildi. Bugungi kunda o'rta maktab tarix o'qituvchisi samarali ta'lim berishi uchun nazariy va amaliy jihatdan yetarli bilim va malakaga ega bo'lishi lozim. Bu borada birinchi prezidentimiz I.Karimov shunday ta'kidlagan edi: chuqur tahlil, mantiqqa asoslanmagan bir yoqlama fikr odamlarni, eng avvalo tarix o'qituvchilarini chalg'itadi. Ular eshitganlarini haqiqat shu ekan deb o'quvchilarga ham yetkazishadi, faqat bahsmunazara, tahlil mevasi bo'lgan xulosalargina bizga to'g'ri yo'l ko'rsatishi mumkin. O'rta maktab tarix ta'lifi ilmiy-tarixiy tushunchalar va ular orasidagi bog'lanishlar, aloqalar tizimidan iborat. Shu jihatdan olganda, u tarix fani asoslarini o'rganish, uni puxta va ongli o'zlashtirish, ushbu fanning ilmiy tushunchalarini o'zlashtirishni bildiradi. Tarix kursini ongli va faol o'zlashtirish, albatta, undagi ilmiy tushunchalarga mos atamalar tizimidan to'g'ri foydalanishni nazarda tutadi.

Agar o'tmishga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'qitish metodlarini tanlash muammosiga Ya.A.Komenskiy, I.Pestalossi, A.Disterveg, K.D.Ushinskiylar ma'lum darajada e'tibor berishgandi. Ya.A.Komenskiy o'qitish metodlariga g'oyat katta ahamiyat berib, agarda bilim cho'qqilariga juda ozchilik qiyinchilik, ming azob bilan yetib borar ekan, buning sababi insoniyat erisha olmaydigan biror narsaning mavjudligida emas, balki metodlarning chalkashligidadir, deb hisoblagandi. U bilish qobiliyatini yuzaga chiqara oladigan usullarga rioya qilishni va ularni sharoitlarga qarab qo'llashni talab etgandi. Respublikamizda tarix fanini falsafiy yondashuv asosida

tadbiq qilish N. Jo‘raev tomonidan taqdim qilingan. Tarix fanini o‘qitishning uslubi bo‘yicha esa T.Toshpo‘latov va Ya.G‘afforovlar tomonidan taqdim qilingan o‘quvuslubiy, didaktik ta’minot ham alohida ahamiyatga ega.

Tarix fanining mакtab kursi uchta vazifani bajarishga qaratilgan:

- o‘quvchilarga tarixiy bilimlarning asoslarini berish, ularning chuqurligi va mustahkamligini ta’minlash;
- o‘quvchilarda tarixni ilmiy tushunishning shakllanishi va milliy tarix,
- xorijiy mamlakatlar va xalqlar tarixiga hurmat munosabatida bo‘lishni ta’minlashga;
- o‘quvchilarda tarixiy ong, tarixiy xotira, tarixiy tafakkurni rivojlantirish va o‘quvchilarning bilimlarini mustaqil o‘zlashtirish va qo‘llashga o‘rgatishdir.

O‘quvchilarning tarixiy tafakkuri ularning umumiy dunyoqarashining shakllanishi bilan birgalikda boradi. O‘quvchilarning dunyoqarashida tarixiy tafakkurning rivojlanishi uning amaliy faolligini ta’minlaydi. Ya’ni, tarixan dunyoda mavjud bo‘lgan fan-texnika yangiliklarini o‘zlashtirishi bilan o‘z faoliyatida yangilikka intilish o‘zida yaratuvchanlik faoliyatini shakllantiradi. O‘quvchi tarix fanidan bilimlar asosini o‘zlashtirganda millatimiz va boshqa xalqlarning o‘tmish, kecha va bugungi taraqqiyoti to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘ladi. Tarix ta’limi har bir odamga etnomilliy, umummilliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘zlashtirishga yordam berishi lozim. Bu o‘quvchini shaxs, fuqaro, inson sifatida shakllanishiga asos bo‘ladi. O‘quvchilar O‘zbekiston tarixi fanini o‘rganish davomida umuminsoniy qadriyatlarni o‘zlashtirib boradi. Tarix darslari o‘quvchilarga tarixiy bilimlarni yetkazib beruvchi vositagina emas, balki ularning ma’naviy-axloqiy jihatdan shakllanib borishlarini ta’minlovchi kuchli ta’sirga ega bo‘lgan omil hamdir. Maktab tarix ta’limining zamonaviy konsepsiysi tarixni tizimli o‘rganishni saqlab qoladi. Lekin tarix uning tamoyillari asosida o‘rganiladi. Tarix o‘quv fani o‘rta maktabda gumanitar fanlarning rivojlanishi uchun metodologik shart-sharoit yaratadi. Tarix fanining ma’lumotlari, tushunchalari, atamalari va tamoyillari boshqa fanlarda ham keng qo‘llaniladi, o‘z navbatida tarix fanida boshqa fanlardagi tushuncha, atamalardan foydalaniladi.

Tarix fani boshqa ijtimoiy gumanitar fanlardan farq qiladi va alohida mavqega ega. Albatta u boshqa ijtimoiy fanlar, falsafa, iqtisodiyot nazariyasi, sotsiologiya, siyosatshunoslik va boshqalar bilan aloqada bo‘ladi. Hozirgi kunda tarix fanining fanda e’tirof etilgan xilma-xil nazariyasi va konsepsiyalari ko‘pchilik hukmiga havola qilinmoqda. O‘qituvchi tarix faniga tegishli barcha e’tiborga molik nazariya va konsepsiyalarni izchil o‘rganishi va tadqiqot o‘quv jarayoniga samarali tadbiq etishi lozim. Tarix o‘qituvchisi tarixiy nazariya va konsepsiyalardan har bir mavzuni o‘rganishda qo‘llashi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Tegishli nazariya mavzu bilan mos bo‘lishi uchun uni o‘qituvchi darsga tayyorlanish jarayonida tahlil qilishi va oqilona foydalanish zarur. Shu bilan birga, mavzudagi tarixiy ma’lumot, dalillar bilan nazariyaning o‘rtasidagi muvozanat uyg‘un saqlanib qolishiga e’tibor beriladi.

Mamlakatimizda tarix fanini rivojlantirish sohasidagi ishlar kompleks va tizimli davom ettirilmoqda. Bugungi kunda O‘zbekiston tarixini o‘rganishda tub o‘zgarishlar yuz bermoqda. Ushbu yo‘nalishda quyidagi ilmiy, metodologik masalalar asosiy o‘rin tutadi:

1. Tarixni o‘rganishning metodologik asoslarini rivojlantirish. Bunda tarix metodikasi bo‘yicha mavjud turli xil ilmiy konsepsiyalarni o‘rganish orqali ulardan foydalanish.
2. Tarixni o‘rganish uchun ishlab chiqilgan yagona konsepsiyanı amalga tadbiq etish.
3. O‘rta va o‘rta maxsus ta’lim, professional ta’lim, oliy ta’lim uchun yaratilayotgan darsliklarni yangi avlodini ishlab chiqishda yagona konsepsiyaга tayanish.
4. Tarix fanining dolzarb muammolarni o‘rganishda turli fanlarning yutuqlari, fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi hamda klaster modeli asosidagi samarali hamkorlik faoliyatini tashkil etish
5. Tarix fanini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy anjumanlarni o‘tkazish va fanning dolzarb muammolarini o‘rganish jarayonida erishilgan yutuqlarni monitoringini olib borish va hokazo.

Bugungi globallashuv davrida mamlakatimiz boy tarixi, milliy davlatchiligining shakllanishi va taraqqiy etishi yuzasidan xalqimiz, ayniqsa yoshlar ongida boy o‘tmishimizga nisbatan g‘urur va iftixon tuyg‘ularini shakllantirish, ularni vatanga nisbatan muhabbat ruhida tarbiyalash vazifasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Darhaqiqat, o‘zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Biz bu bilan haqli ravishda faxrlanishimiz, ushbu boy, moddiy va ma’naviy merosni kelajak avlodlarga o‘z holicha yetkazmog‘imiz zarur. Buning uchun tarix fanini o‘qitishga yangicha talqinlar asosida yondoshmog‘imiz muhim.

Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi ning Farmoni va unda belgilangan O‘zbekiston tarixini o‘rganish va targ‘ib qilishni yanada rivojlantirish ustuvor vazifasi va Tarix fanini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi tahlili asosida yozildi. Maqolada N. Oblomurodov va F. Tolipovlar tomonidan 2022 yilda chop etilgan “O‘zbekiston tarixi” darsligiga ham murojaat qilindi. Maqola barcha ijtimoiy-gumanitar fanlarda qabul qilingan ob‘ektivlik, izchillik, tarixiy hamda ijtimoiy voqeа va hodisalarini xronologik asosda o‘rganish, manba va dallilarga tayanish va ularning haqqoniyliga asoslanish tamoyillari negizida yoritildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi ning Farmonida 77-maqсадning “O‘zbekiston tarixini o‘rganish va targ‘ib qilishni yanada

rivojlantirish” vazifasi belgilanganligi va unda Tarix fanini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish ko‘zda tutilganligi xalqimiz va uning davlatchiligi tarixini o‘rganishga davlat siyosati darajasida ahamiyat qaratilayotganligini tasdiqlaydi.

Prezident Shavkat Mirziyoev qayd etganidek, “Bir haqiqatni hech qachon unutmaylik: biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqmiz. Biz – hech qachon mehnatdan qochmaydigan, qiyinchilikdan qo‘rqmaydigan,adolatni qadrlaydigan, azmu shijoatli buyuk xalqmiz. Barchamiz bir tanu bir jon bo‘lib, yakdil va ahil bo‘lib harakat qilsak, halol-pok bo‘lib, yaxshi niyat bilan mehnat qilsak, har qanday marralarni egallahsga, boshqacha aytganda, tarixning yangi sahifasini yaratishga qodirmiz”. Albatta, bu qadimiy va tabarruk maskandan buyuk allomalar, fozillar, olimu ulamolar, sarkardalar yetishib chiqqan. Ko‘plab diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan. O‘tmishda barpo etilgan muhtasham tarixiy yodgorliklar va inshootlar shu kungacha o‘z ko‘rkini, mahobatini yo‘qotmaganligi, qadimdan yurtimizda o‘troq dexqonchilik, rivojlangan hunarmandchilik madaniyati, me’morchilik, shaharsozlik san’ati yuksak darajada rivojlanganligidan dalolat beradi. Ushbu tarixiy merosni o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari hamda tamoyillari xususidagi muhim takliflarning davlatimiz rahbari tomonidan o‘rtaga tashlanishi mustaqillik yillarda haqqoniy tariximizni o‘rganish borasidagi ayrim muammolarni hal qilishda muhim dastur bo‘lmoqda. Ayniqsa bu borada uzoq yillar mobaynida yo‘l qo‘yilgan ayrim xato va kamchiliklarni ro‘y rost tanqidiy tahlil qilinishi ham muhim voqeа bo‘ldi. Bu borada o‘z fikr mulohazalarini bildirgan Prezidentimiz quyidagilarni qayd etadi: ”Afsuski, yurtimiz tarixini o‘rganishda o‘tgan davrlarda arxeologik tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmadi. Shuning uchun Fanlar akademiyasining Arxeologiya va San’atshunoslik institutlari faoliyatini, oliy o‘quv yurtlari va muzeylardagi arxeologik izlanishlarni chet ellik hamkorlar bilan birga tashkil etish zarur.

Prezident Shavkat Mirziyoev qayd etganidek, “Bir haqiqatni hech qachon unutmaylik: biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqmiz. Biz – hech qachon mehnatdan qochmaydigan, qiyinchilikdan qo‘rqmaydigan,adolatni qadrlaydigan, azmu shijoatli buyuk xalqmiz. Barchamiz bir tanu bir jon bo‘lib, yakdil va ahil bo‘lib harakat qilsak, halol-pok bo‘lib, yaxshi niyat bilan mehnat qilsak, har qanday marralarni egallahsga, boshqacha aytganda, tarixning yangi sahifasini yaratishga qodirmiz”. Albatta, bu qadimiy va tabarruk maskandan buyuk allomalar, fozillar, olimu ulamolar, sarkardalar yetishib chiqqan. Ko‘plab diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan. O‘tmishda barpo etilgan muhtasham tarixiy yodgorliklar va inshootlar shu kungacha o‘z ko‘rkini, mahobatini yo‘qotmaganligi, qadimdan yurtimizda o‘troq dexqonchilik, rivojlangan hunarmandchilik madaniyati, me’morchilik, shaharsozlik san’ati yuksak darajada rivojlanganligidan dalolat beradi. Ushbu tarixiy merosni o‘rganishning nazariy-

metodologik asoslari hamda tamoyillari xususidagi muhim takliflarning davlatimiz rahbari tomonidan o’rtaga tashlanishi mustaqillik yillarda haqqoniy tariximizni o’rganish borasidagi ayrim muammolarni hal qilishda muhim dastur bo’lmoqda. Ayniqsa bu borada uzoq yillar mobaynida yo’l qo‘yilgan ayrim xato va kamchiliklarni ro’y rost tanqidiy tahlil qilinishi ham muhim voqeа bo’ldi. Bu borada o’z fikr mulohazalarini bildirgan Prezidentimiz quyidagilarni qayd etadi: ”Afsuski, yurtimiz tarixini o’rganishda o’tgan davrlarda arxeologik tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmadi. Shuning uchun Fanlar akademiyasining Arxeologiya va San’atshunoslik institutlari faoliyatini, oliy o’quv yurtlari va muzeylardagi arxeologik izlanishlarni chet ellik hamkorlar bilan birga tashkil etish zarur. puxta shakllantirish kerak. Mamlakatimiz muzeylarida saqlanayotgan tarixiy eksponatlarni to‘liq xatlovdan o’tkazish, har bir muzeyning katalogini yaratish lozim”, deya qayd etildi.

Shu o’rinda O’zbekistonning eng yangi tarixini o’qitish xususida so’z yuritish lozim. Ya’ni, bu davr qo’lga kiritilgan mustaqil taraqqiyot yo’limizni tanlanishi, tariximiz va milliy-ma’naviy qadriyatlarimizni xalqimizga qaytarilishi, o’zlikni anglash davridir. Ushbu davrning uzviy davomi esa milliy taraqqiyotimizga yangicha mazmun baxsh etgan hamda yangi taraqqiyot davrini boshlab bergen yangi O’zbekiston davridir. Zero, so’nggi yillarda mamlakatimizda O’zbekistonning qo’lga kiritilgan mustaqilligini yanada mustahkamlash, jamiyatni demokratlashtirish, huquqiy-demokratik davlat qurish, fuqarolik jamiyatini yanada taraqqiy ettirish, inson qadrini ulug’lash, mamlakatimzda yashayotgan barcha millatlarning totuvligi va tengligini ta’minlash, respublikani ijtimoiy-iqtisodiy yuksaltirishga erishish yo’lida yangicha islohotlar amalga oshirildi.

O’zbekistonning eng yangi tarix fani xususida xolis ma’lumotlarga ega bo’lish uchun fanning predmeti va ob’ektini to‘g’ri belgilab olish muhim ahamiyatga ega. Zero, hozirgi kunda tarixchilar oldida turgan muhim masalalardan biri bu, o’zbek xalqi va uning davlatchilik tarixini fanning predmeti va uni o’rganish ob’ektidan kelib chiqib, yangicha nazariy metodologik tamoyillarga tayangan holda haqqoniylik, xolislik tamoyillari asosida yoritishdan iboratdir.

Shu boisdan O’zbekistonning eng yangi tarixi davrini quyidagi ikki muhim tarixiy davrga bo’lish maqsadga muvofiq:

1. O’zbekistonning mustaqillikka erishishi va yanada mustahkamlash davri (1991-2016 yillar)

2. Yangi O’zbekiston va uning startegik taraqqiyot davri (2017 yildan hozirgacha).

Eng yangi tarix fani ham boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar kabi mustaqil fandir. U barcha fanlar qatori alohida o’z o’rni va mavqeiga ega bo’lib, ijtimoiy-gumanitar va boshqa ayrim fanlar bilan uzviy bog’liq holda o’rganiladi. Birinchidan, u o’z xususiyatiga ko’ra, mustaqillik yillari tarixi haqida saboq beradi, insonlarni sodir bo’lgan voqeа va hodisalar haqida zarur xulosalar chiqarishga undaydi, ularni davlatimiz va jamiyatimizning yaqin tariximizdagи o’rnini qadrlashga undaydi.

Ikkinchidan, tarix fanini o‘rganishda barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar uchun xos barcha tamoyil va uslublarga tayaniladi. Hatto uni o‘rganishda matematik usuldan ham foydalaniishi, bejiz emas. Chunki tarixiy voqeа va hodisalar qat’iy aniqlikda, davriy ketma-ketlikda, xronologik asosda o‘rganiladi. Ularni o‘rganishda tarixiy hujjat va dallilarning haqiqiy ekanligi, ular qachon, qaerda, qanday tarixiy muhit va sharoitda yaratilganligiga ham ahamiyat beriladi. O‘zbekistonning engi yangi tarixi fani yaqin o‘tmishimizdagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy jarayonlarni, ularning rivojlanishining sabablarini o‘rganadi. Kishilarni ulardan kelajak uchun saboq olishga va zarur xulosalar chiqarishga undaydi. Bu esa kelajak avlodlar kamolotida katta ahamiyatga ega.

Mamlakatning jahon hamjamiyatiga tobora intergatsiyasini ta’minalash, yaqin qo’shnichilik va strategik hamkorlikka asoslangan ochiq pragmatik siyosat olib borish, tinchlik va xavfsizlikni ta’minalash tizimi yanada mustahkamlandi va takomillashtirildi. Xalq bilan muloqot va inson manfaatlariga e’tibor berishning yangicha mexanizmi joriy etildi. Uzoq yillar mobaynida yetilib qolgan ko‘plab muammolarni hal qilish, har bir rahbarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish, xalqning dardu-tashvishlari bilan yashash, fuqarolar murojaatlari bilan ishlashning yangicha tizimini joriy etilishi, inson omiliga e’tibor masalalarining tubdan isloh qilinishi yangi O‘zbekistonning ulkan tarixiy yutug‘idir.

Yangi tarix fanini o‘qitishda so‘nggi yillarda «Inson qadrini ulug‘lash» tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta’minalash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash masalalariga e’tibor kuchaytirildi. Shu bilan birga O‘zbekiston imidjini jahon sahnasida ilgari surishni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar majmuuni tayyorlash va amalga oshirish, mamlakatimizda islohotlarning borishi, jamiyatni demokratik yangilash jarayonlari haqida xolis axborot tarqatishning samarali davom ettirish, tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratila boshlandi. O‘zbekistonning eng yangi tarixi fani esa ushbu tarixiy jarayonlarni tadrijiy ravishda o‘rganadi va kelajak avlodlarga yetkazadi.

Umuman, O‘zbekistonning eng yangi tarixini tizimli ravishda tarixiylik va xolislik prinsiplariga asoslangan holda o‘rganish, ulkan tarixiy-madaniy merosga ega bo‘lgan va jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo‘sghan o‘zbek xalqining mustaqillik yillaridagi shonli o‘tmishi va bugungi kuniga xolisona baho berish yo‘lidagi sayi harakatlarimizga munosib hissa bo‘lib qo‘shiladi. Bu esa tarixchi olimlar oldiga o‘quv, o‘quv-metodik adabiyotlar va darsliklarning yangi avlodini yaratish ishlarini muvofiqlashtirishni, O‘zbekistonning eng yangi tarixini umumjahon va mintaqalari tarixi bilan mushtarak hoda tadqiq etish vazifasini qo‘ymoqda. Bu shubhasiz, O‘zbekistonning eng yangi tarix davrini nafaqat mustaqillik yillarida amalga oshirilgan

islohot va o'zgarishlar bilan hamohang o'rganishni ta'minlaydi, balki kelajakdag'i strategik maqsadlarimizni ro'yobga chiqarishga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sagdullayev. A, Aminov. B, Mavlonov. O', Norqulov. N: O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqiyoti. I-qism. "Akademiya". Toshkent-2000.
2. Primkulovna, A. S. (2024). Classification of proper names: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, 4(2), 80-86.
3. Primkulovna, A. S. (2023). Periphrases unit of the names of the representors of literature in english and uzbek language. *Journal of language and linguistics*, 6(5), 100-104.
4. Djumaniyazovna, M. A. (2022). Introduction of preschool and primary school age children to social and legal norms. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(3), 176-178.
5. Abdullayeva, M. D. (2022). Ways to improve social skills in primary school pupils based on socio-legal norms. *European research: innovation in science, education and technology*, (pp. 92-95).
6. Abdullayeva, M. D. (2021). Spiritual education of preschool children. *Current research journal of pedagogics*, 2(10), 147-151.
7. Hamroyevich, A. T., & Qizi, Y. U. I. (2021). Natural characteristics of expressing sign affixes.
8. Dilnoza, M., Munira, A., & Olimjon, A. (2022). Influence of involution on differential equations with second-order constant coefficients. *international journal of research in commerce, it, engineering and social sciences ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, 16(01), 40-44.
9. Xaytmirzayevna, M. D., & Jasurbek, E. (2022). Acmeological approach to preparation of future teachers. *Web of scientist: International Scientific Research Journal*, 3(4).
10. Normatova, A. (2023). The importance of preparation of english language teachers for distance education in uzbek society. *Journal of language and linguistics*, 6(5), 105-110.
11. Normatova, A. (2023). Implementations and challenges in organizing distance learning. *PEDAGOG*, 6(12), 174-179.
12. Жураев, А. (2019). Ўзбекистонда барқарор тараққижтнинг тиншилкпарварлик тамойили билан узвийлиги. НамДУ илмий ахборотномаси, 7-сон, 143-148.
13. Sirojiddinovna, H. D. (2023). Scientific-theoretical foundations of the formation of students'independent learning skills based on the" case-study" approach in

teaching english. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(11), 638-645.

14. Astanova, G. A. Analysis of the image of wise and entrepreneurial women in Shahrizoda stories. *theoretical & applied science* Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (9), 533-537.
15. Aminovna, A. G. (2020). Interpretation of the image of the hero woman in the stories of Shahrizoda. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology*, 17(6), 14365-14373.
16. Kadirova, Z. Z. (2022). The role of the names of precious stones in the formation of anthroponyms in the Uzbek language. *International Scientific Journal Theoretical & Applied Science*, 1(1), 182-187.
17. Kadirova, Z. Z. (2022). Periphrases of human nature in alisher navois prose works. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE* Учредители: Теоретическая и прикладная наука,(6), 381-383.